



TASDIQLAYMAN:

«UMS» MChJ Texnika va AT bo'yicha
Bosh direktor o'rinbosari
A.R. Abduraxmanov

« 16 » 01 2026 yil

TEXNIK TOPSHIRIQ

Xarid qilish uchun:

«UMS» MChJ ehtiyojlari uchun VRV/VRF konditsionerlash tizimlarini yetkazib berish, montaj qilish, sozlash va ishga tushirish bo'yicha ishlar majmuasi. Jami sovutish quvvati 150 kVt bo'lgan uchta kontur, kommutator uchun ikkita 55 kVtlik kontur (havo kanallari bo'lgan 4 ta kanalli konditsioner) va yetti xona uchun bitta 40 kVtlik kontur, Jizzax RHM uch qavatli ofis binosining uchinchi qavati.

(«Universal Mobile Systems» mas'uliyati cheklangan jamiyati)

Toshkent shahri
2026 yil

Mundarija

1. Umumiy

ma'lumotlar.....Ошибка!

Закладка не определена.

1.1. Maxsulot tavsifi (funktional va iste'mol xususiyatlari).....	3
1.2. Ishlarni (xizmatlarni) sotib olish maqsadi.....	3
1.3. Xarid amalga oshirilayotgan loyihani amalga oshirish asosi.....	3
1.4. Ishlar va xizmatlar ro'yaxti.....	3
1.5. Ishlarni bajarish (xizmat ko'rsatish) joyi.....	3
1.6. Yangilik to'g'risidagi ma'lumotlar.....	3
2. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar.....	Ошибка! Закладка не определена.
3. Uskunalar Xususiyatlari	3
4. Ishlarni bajarish (xizmat ko'rsatish) muddatlari.....	4
5. Uskunalar qo'yiladigan asosiy talablar	4
6. Xavfsizlik talablari.....	6
7. Topshirish va qabul qilish qoidalari bo'yicha talablar.....	6
8. Kafolat berish muddati bo'yicha talablar	6
9. Montaj, sozlash va ishga tushurish bo'yicha talablar.....	6
10. Illovalar ro'yxati	8

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1. Tovarlar tavsifi (funktional va iste'mol xususiyatlari)

Ushbu texnik topshiriq VRV/VRF konditsionerlash tizimlarini yetkazib berish, montaj qilish va ishga tushirish bo'yicha talablarni belgilaydi. Jizzax RHM uch qavatli ofis binosining uchinchi qavatidagi kommutator xonasi uchun jami quvvati kamida 110 kVt bo'lgan ikkita kontur (havo kanallari bo'lgan 4 ta kanalli konditsioner) hamda uchinchi qavatdagi xizmat xonalari uchun bitta 40 kVtlik kontur (7 ta xona).

1.2. Ishlarni (xizmatlarni) sotib olish maqsadi

Uch qavatli ofis binosining uchinchi qavatidagi kommutator va xonalarda zaruriy, belgilangan harorat rejimini ta'minlash.

1.3. Xarid amalga oshirilayotgan loyihani amalga oshirish asosi

Xarid 2026-yil uchun tasdiqlangan byudjet va xaridlar rejasi asosida amalga oshiriladi.

1.4. Ishlar va xizmatlar ro'yxati

Ushbu xarid qilish tartib-taomili doirasida ishtirokchi ishchi hujjatlarni ishlab chiqish hamda ishchi loyiha yechimiga muvofiq uskunalarni montaj qilish, ishga tushirish va sozlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha tijorat taklifini taqdim etishi lozim. Barcha ishchi sxemalar Buyurtmachi bilan kelishilishi shart.

1.5. Ishlarni bajarish (xizmat ko'rstish) joyi

Jizzax sh., Sayiljoyi MFY, Sharof Rashidov ko'chasi, 10-uy.

1.6. Yangilik to'g'risidagi ma'lumotlar

Yetkazib beriladigan Tovarlar yangi, belgilangan maqsadda foydalanishga yaroqli bo'lishi hamda O'zbekiston Respublikasida ushbu toifadagi Tovarlar sifati bo'yicha o'rnatilgan standartlar va talablarga javob berishi lozim. Ishlab chiqarilgan yili 2025-yildan eski bo'lmasligi shart.

2. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar

Ishchi hujjatlarni ishlab chiqish; Texnik topshiriqqa muvofiq uskunalarni yetkazib berish. Ularni o'rnatish joyigacha tashish (ko'chirish) ishlarini tender Ishtirokchisi (u ham bo'lsa Ijrochi) amalga oshiradi.

Ijrochi o'zining butun va xavfsiz uskunalaridan foydalangan holda, montaj va ishga tushirish (puskonaladka) ishlarining butun siklini ta'minlashi shart. Qo'llaniladigan barcha materiallar yong'inga chidamlilik va yong'in xavfsizligi bo'yicha normativ-texnik hujjatlar talablariga javob berishi lozim.

Barcha elektr uskunalari yuqori sifatli bo'lishi, tartibga soluvchi (nazorat qiluvchi) organlarning talablariga mos kelishi va sertifikatga ega bo'lishi shart.

Ishlarni bajarish jarayonida Buyurtmachining (Mijozning) mol-mulkiga zarar yetkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bajarilgan ishlarni qabul qilish vaqtida nuqsonlar (defektlar) aniqlangan taqdirda, ushbu nuqsonlarni bartaraf etish Ijrochi hisobidan amalga oshiriladi.

Barcha sarf materiallari, shuningdek, Ishtirokchining (Uchastnikning) har qanday boshqa xarajatlari ishlarning umumiy qiymatiga kiritilgan bo'lishi shart

3. Obyekt xususiyatlari

3.1 Xona: Kommutator Maydoni 76,7 kv.m., balandligi 3 m. Konditsionerlash tizimi 2 ta VRV/VRF konturidan, ikkita tashqi qurilma (blok) va to'rt dona havo o'tkazgichli (kanalli) ichki qurilma (blok) iborat bo'lishi kerak (har bir konturga ikkita tashqi qurilma (blok)). Har birining sovutish quvvati kamida 55 kVt bo'lib, "1 kontur ishchi + 1 kontur zaxira" rejimida ishlashi lozim.

- Normal foydalanish sharoitida konditsionerlar navbatma-navbat, sutkasiga bir marta almashinib ishlaydi.
- Xonada yuqori harorat yuzaga kelganda yoki qurilma (blok) biriga texnik xizmat ko'rsatilayotganda zaxiradagi konditsioner ishga tushadi.
- Xonadagi texnologik uskunalarning issiqlik ajratmalari 55 kVt dan oshmaydi.

3.2 3-qavat xonalari (7 dona xona):

- 2 dona xona: har biri 16,7 kv.m.
- 1 dona xona: 21,1 kv.m.
- 1 dona xona: 22,5 kv.m.
- 1 dona xona: 34,6 kv.m.
- 2 dona xona: har biri 40 kv.m

Texnologik xonalardagi mavjud uskunalarning joylashuv rejasi 4-ildovada keltirilgan.

4. Ishlarni bajarish (xizmat ko'rsatish) muddatlari

Konditsionerlarni o'rnatish bo'yicha ishlarning to'liq hajmi 30 kalendar kuni ichida bajarilishi shart.

5. Uskunalarga qo'yiladigan asosiy talablar

- 5.1 Loyiha doirasida Buyurtmachi kommutator uchun har bir konturi kamida 55 kVt quvvatli va parallel ishlash rejimiga mo'ljallangan, shuningdek, 3-qavatdagi 7 dona xona uchun kamida 40 kVt quvvatli yangi konditsionerlarni xarid qilishni ko'rib chiqmoqda.
- 5.2 VRV/VRF konditsionerlash tizimini montaj qilishda qo'llaniladigan barcha uskunarlar iqlim texnikasini ishlab chiqaruvchi kompaniya talablariga javob beradigan hamda texnik topshiriqqa maksimal darajada (optimal) muvofiq keladigan texnik va sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishi shart..
- 5.3 Sovuq yo'laklar (koridorlar) ustida sovuq havo oqimini bir tekis taqsimlovchi havo o'tkazgichlar (vozduxovodlar) o'rnatiladi. Uskunarlar bo'lmagan joylarga sovuq havo oqimini to'sish uchun havo o'tkazgichlarda zaslonkalar o'rnatishni ko'zda tutish kerak.
- 5.4 Issiq havoni so'rish havo o'tkazgichlar orqali issiq yo'lak (stoyak) o'rtasidan amalga oshirilishi kerak.
- 5.5 Konditsionerlarni o'rnatish va drenaj quvurlari trassasi shunday o'tkazilishi kerakki, suv oqib ketgan taqdirda u uskunaga tushmasligi lozim.
- 5.6 Agar Ijrochi trassalarni o'tkazish uchun shiftni demontaj qilishi yoki devorlarda o'yiqlar (shtroba) ochishi kerak bo'lsa, barcha tiklash ishlari Ijrochi hisobidan amalga oshiriladi.

Yetkazib berilayotgan konditsionerlarga qo'yiladigan asosiy talablar 1 va 2-jadvallarda keltirilgan:

1-jadval.

№	Xususiyat nomi	Talablar
1	Ishlab chiqaruvchi	
2	Nomi	
3	Turi	
4	Ishlab chiqaruvchi mamlakat	
5	Maxsulot kafolati	36 oy
6	Xizmat muddati	Kamida 5 yil (60 oy)
7	Avtorizatsiyalashgan texnik xizmat ko'rsatish (servis) markazlarining mavjudligi	O'zbekiston, Toshkent sh.
8	Konditsioner turi	VRV/VRF (kanalli, devoriy, shiftbop)
9	Kompressor turi	Spiralimon (scroll)
10	Xladagent turi (freon)	Ekologik toza, O'z. R. Da foydalanishga ruxsat etilgan
11	Solishtirma sovutish unumdorligi, W/W (kamida)	2,96
12	Tashqi va ichki qurilma (blok) orasidagi eng yuqori balandlik farqi, m	50
13	Qurilma (blok) orasidagi eng yuqori uzunlik, m	30
14	Trassaning eng yuqori umumiy uzunligi, m	250
15	Havo haydash	Vertikal
16	«Sovutish» rejimida atrof-muhit haroratida ishlash qobiliyatini saqlash, °C	+50
17	«Isitish» rejimida atrof-muhit haroratida ishlash qobiliyatini saqlash, °C	-20
18	Xona ichidagi ishchi harorat diapazoni "sovutish" rejimida, °C	+18 - + 30
19	LED-displey, boshqaruv pulti(o'rnatilgan harorat, ish rejimi, yoqish/o'chish)	Mavjud
20	Shovqin darajasi, dB ko'pi bilan	55
21	Yetkazib berish muddati	30 kalendar kuni
22	Ish rejimi	Issiq-sovuq, tunu-kun
	Kommutator tashqi qurilma (blok)	
23	Tashqi qurilma (blok) soni	2
24	Tashqi qurilma (blok) nominal unumdorligi, Sovutish/Isitish (kVt), kamida	55.0/60.0
25	Sovutish/isitish vaqtida nominal iste'mol quvvati, Vt	17 000
26	Elektr ta'minoti (faza, kuchlanish, chastota)	(V)3~380~400 V, 50 Gs
27	Tashqi qurilma (blok) o'lchamalari (KBCh) sm	1 780 x 1 340 x 845
28	Og'irligi, kg	350
	Kommutator ichki blok	Kanalli
29	Ichki qurilma (blok) unumdorligi, Sovutish/Isitish (kVt), kamida	26/30
30	Ichki qurilma (blok) soni	4
31	Havo sarfi, m³/soat, kamida	4500
32	Havo bosimi (yuqori bosimli), Pa	300
33	Ichki qurilma (blok) o'lchamalari (KBCh) sm	470x1366x758
34	Og'irligi, kg	120
	3-qavat xonalari tashqi qurilma (blok)	

35	Tashqi qurilma (blok) soni	1
36	Tashqi qurilma (blok) nominal unumdorligi, Sovutish / Isitish (kVt), kamida	40.0/45,0
37	Sovutish/isitish vaqtida nominal iste'mol quvvati, Vt	13 000
38	Elektr ta'minoti (faza, kuchlanish, chastota)	(V)3~380~400 V, 50 Gs
39	Tashqi qurilma (blok) o'lchamlari (KBCh) sm	1 780 x 1 340 x 845
40	Og'irligi, kg	270

2-Jadval. 3-qavat xonalaridagi ichki qurilma (blok) quvvatlar bo'yicha taqsimoti

№	Xona nomi	Xona maydoni m ²	Ichki qurilma (blok) quvvati kVt	Kondisioner turi	Soni dona
1	Xodimlar oshxonasi	16,7 m ²	3,2 kVt	Devoriy	1 dona
2	Tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha mutaxassis, AT mutaxassisi va omborchi xonasi	16,7 m ²	3,2 kVt	Devoriy	1 dona
3	BG boshlig'i va tarmoqlarni optimallashtirish bo'yicha mutaxassis	21,1 m ²	3,2 kVt	Devoriy	1 dona
4	MTB xonasi	22,5 m ²	3,2 kVt	Devoriy	1 dona
5	Bosh energetik guruhi xodimlari xonasi	34,6 m ²	7 kVt	Devoriy	1 dona
6	Radiotizimni ekspluatatsiya qilish guruhi xodimlari xonasi	40 m ²	10 kVt	Devoriy	1 dona
7	Anjumanlar zali	40 m ²	10 kVt	Devoriy	1 dona
	Jami:	191,6 m²	39,9 kVt		7 dona

6. Xavfsizlik talablari.

Montaj bo'yicha balandlikdagi ishlar, balandlikdagi ishlarga ruxsatnomaga (dopuska) ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi shart.

Barcha ishlar, ishlar amalga oshirilayotgan xonalarda yong'in xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etgan holda bajarilishi shart.

Ishlarni bajarishga xodimlari tegishli tayyorgarlikdan o'tgan hamda balandlikda ishlash, gaz-payvandlash ishlarini olib borish va 1000 voltgacha bo'lgan kuchlanishda ishlash ruxsatnomasiga ega bo'lgan kompaniyalar qo'yiladi. Montaj ishlarini amalga oshiruvchi kompaniya xodimlari konditsionerlarni o'rnatish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha amaldagi

sertifikatlarga ega bo'lishlari shart. Shuningdek, aloqa kommutatsiya uskunalarining avtozallarida konditsionerlarni o'rnatish ish tajribasiga ega bo'lishi shart

7. Topshirish va qabul qilish qoidalarini bo'yicha talablar

Montaj va ishga tushirish-sozlash ishlari yakunlangach, konditsionerlarni foydalanishga topshirishda quyidagi dalolatnomalar rasmiylashtiriladi:

- Konditsionerlarning germetikligini (sizmasligini) sinash dalolatnomasi (1-ilova).
- Konditsionerni foydalanishga qabul qilish-topshirish dalolatnomasi (2-ilova)
- Bajarilgan ishlar dalolatnomasi.
- Barcha ishlatilgan materiallar uchun sertifikatlarni taqdim etish.
- Hisob-varaqa.
- Bajarilgan ishlar bo'yicha fotosuratli hisobot tuzish.
- Bajarilgan ishlar bo'yicha ijro sxemasini tuzish.
- Kuch kabeli liniyalarining izolyatsiya qarshiligini o'lchash bayonnomasi (3-ilova).

Maxsulot jamlanmasi (komplektatsiya) mazkur texnik topshiriqda (xususiyatlar jadvalida) keltirilgan ma'lumotlarga, shu jumladan sotib olinayotgan maxsulotning pasportidagi jamlanmasi (komplektatsiya) mos kelishi kerak.

8. Kafolat berish muddati bo'yicha talablar

Uskunalarini o'rnatish bo'yicha bajarilgan ishlar va montaj ishlari sifatiga kafolat majburiyatlari kamida 36 oyni tashkil etadi.

9. Montaj, sozlash va ishga tushirish bo'yicha talablar

• Konditsionerlarni joylashtirish va o'rnatish ishlari avvaldan kelishilgan chizmalarga muvofiq amalga oshirishi shart.

• Qavatlararo va devor plitalarida freon quvurlari uchun teshiklar ochiladi

• Teshiklar o'rni bino mustahkamligi va arxitekturasiga ta'sir qilmasligi kerak.

• Teshik fasadni buzmaganda devorning tashqi tomoniga pastga qiyalik bilan ochiladi.

• Teshiklarni berkitish va teshish (burg'ilash) vaqtida yetkazilgan barcha shikastlanishlar Ijrochi hisobidan bartaraf etiladi.

• Xona interyeriga yetkazilgan zarar Ijrochi hisobidan qoplanadi.

• Xonalarda montaj ishlari bajarishda changyutkich va himoya qoplamalaridan foydalaniladi.

• O'rnatish va montaj ishlari jarayonida to'plangan chiqindilar va qurilish chiqindilari Ijrochi tomonidan o'z hisobidan olib chiqib ketilishi shart.

• **Qurilma (blok) kommunikatsiyalar montaji:** Birlashtiruvchi qurilma (blok) naycha (trubka), kabellar, armofleks va o'rama lenta bilan bog'langan drenaj quvuri xona ichida dekorativ-himoya PVX qutisiga (korob) joylashtiriladi.

• Quvurlarni kesish, egish, chetlarini tozalash va kengaytirish (razvaltsovka) maxsus asboblardan (trubkakeskich, trubkaegkich, shabrovka va valsovka) yordamida amalga oshiriladi.

- Ayrim hollarda payvandlash talab qilinishi mumkin. Elektr simlarini ikki simni ulash orqali uzaytirish taqiqlanadi, faqat butun simlar (kabellar) montaj qilinishi kerak.
- Dekorativ qutilarning pala-partish o'rnatilishi hamda xona interyeri va bino fasadining buzilishi Ijrochi hisobidan bartaraf etiladi.
- Qurilma (blok) kommunikatsiyalar yotqizilgandan so'ng devordagi teshik kondensat muzlashi va xonada shabadalar paydo bo'lishining oldini olish uchun issiqlik izolyatori bilan to'ldiriladi. Ichki blokdan chiquvchi drenaj trassasi kondensatning uskunadan o'z oqimi bilan ketishi uchun qiyalik bilan montaj qilinishi va tashqariga chiqarilishi kerak.
- Zarurat tug'ilganda suv nasosi (pompa) o'rnatiladi.
- Tashqi qurilma (blok) montaji tashqi qurilma (blok) uchun metall konstruksiyalarni nazarda tutadi.
- Yangi uskunani Buyurtmachining mavjud muhandislik kommunikatsiyalariga ulash bilan bog'liq barcha montaj ishlari Buyurtmachi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi kerak.
- Zaruriy ishga tushirish-sozlash ishlari Ijrochi tomonidan Buyurtmachi tomonidan mas'ul shaxs ishtirokida o'tkazilishi va uskunani foydalanishga topshirish dalolatnomasida aks ettirilishi kerak.
- Montajdan so'ng barcha freon quvurlari kamida 24 soat davomida 40 ati (atmosfera) bosim ostida azot bilan sinovdan o'tkazilishi (opressovka qilinishi) kerak.
- **Tizimdan havoni chiqarish:** Tizim havodan tozalanishi kerak. Buning uchun ichki qurilma (blok) ulangan quvur havo vakuumatori yordamida yaxshilab vakuumlanadi.
- Agar talab etilsa, montaj, mahkamlash va elektr simlari, freon quvurlarini yotqizish uchun kabel-rost (lotok) o'rnatilsin.
- Barcha freon quvurlarining qalinligi kamida 1 mm bo'lishi kerak.
- Quvurlarning barcha qiyaliklari va moy ilmoqlari (petlyalari) o'rnatish qo'llanmasiga qat'iy muvofiq bajarilishi kerak.
- Barcha quvurlar mahkamlangan bo'lishi va metall konstruksiyalarga ishqalanmasligi kerak.
- Quvurlarning metall konstruksiyalar va temir-beton inshootlar bilan tutashgan joylariga izolyatsiyalovchi qistirmalar (prokladkalar) qo'yilishi kerak.
- Elektr taqsimlash qutisi keng, sifatli bo'lishi, metall qalinligi kamida 1,5mm bo'lishi kerak.
- O'rnatilgan avtomatik o'chirgichlar elektr zanjirlarini qisqa tutashuv toklari, qizib ketish va belgilangan chegaradan ortiqcha yuklanishlardan himoya qilishi kerak.
- Tashqi, ichki qurilma (blok) va metall konstruksiyalar yerga ulanishi (zazemleniye) shart.
- O'rnatilgan uskuna yerga ulanishi shart.
- Mahkamlovchi, yassi va prujinali shaybalar, bolt va gaykalar to'g'ri tartibda o'rnatilishi kerak.


- Uskuna ostida keraksiz teshiklar, detallar, vintlar va boshqa chiqindilar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.
- Konditsionerlar yoqilishidan oldin sertifikatlangan laboratoriya tomonidan kuch kabeli liniyalarining izolyatsiya qarshiligini o'lchash va yerga ulash qurilmalarining tarqalish qarshiligini o'lchash ishlari o'tkazilishi va dalolatnoma tuzilishi kerak.
- Konditsionerni sinovdan o'tkazish. Ishga tushirilgandan so'ng konditsionerning ishlashi barcha rejimlarda sinovdan o'tkaziladi. Sinov paytida tarmoqdagi kuchlanish, konditsionerning elektr energiyasi iste'moli, xladagent bosimi, qurilmaning kirish va chiqish qismidagi havo harorati o'lchanadi. Zarurat bo'lganda, konditsioner xladagent bilan qo'shimcha to'ldiriladi.
- Ishlar yakunlangach, Ijrochi barcha hosil bo'lgan chiqindilarni yig'ishtiradi va olib chiqib ketadi.

10. Ilovalar ro'yxati

№ T/r	Ilova nomi	Bet raqami/Varaqlar soni
1	Konditsionerlarning germetikligini sinash dalolatnomasi.	1-Ilova
2	Konditsionerni foydalanishga qabul qilish-topshirish dalolatnomasi.	2-Ilova
3	Kuch kabeli liniyalarining izolyatsiya qarshiligini o'lchash bayonnomasi.	3-Ilova

Ishlab chiqdi:

Yetakchi mutaxassis


Imzo A.A. Dikov

Kelishildi:

Guruh rahbari


Imzo A.V. Kojuxov

Bosh energetik


Imzo Ya.S. Karabaev


Tarmoq ekspluatatsiyasi departamenti
diretori o'rinbosari


Imzo D.A. Atametov

Tarmoq ekspluatatsiyasi departamenti
direktori


Imzo B.X. Usmanov

Bo'lim boshlig'i


Imzo M.S. Karabaev

Bo'lim boshlig'i


Imzo B.X. Otaboyev

Испытание кондиционера на герметичность.

« ____ » _____ Г.

Заказчик ООО «UMS»

Подрядчик _____

Объект _____

Мы ниже подписавшиеся:

Ответственный от заказчика _____

Исполнитель от подрядной организации _____

Составили и подписали настоящий протокол о том, что после монтажа кондиционера внутренний блок (фен) с соединительной трубкой к наружному блоку подверглись вакуумированию.

№	Кондиционер - контур			Показатели		
	Марка	Модель	Зав.№	Вакуум Р(Мпа)	Время выдержки Мин.	Вакуум после выдержки Р(Мпа)
1			Наружный блок			
			Внутренний блок			

Измерение проводилось прибором _____
(Тип. Модель прибора)

Заключение _____

Измерение проводил. _____

Подтверждающий от Заказчика _____

Технический АКТ

Приёма передачи кондиционера сплит-системы марки _____ модели _____

Установленные на объектах ООО «UMS» _____

№	Место установки	Серийный №		Наличие повреждения и дефекта						Технические характеристики кондиционера				Годен к эксплуатации
		Наружный блок	Внутренний блок	Корпуса	Теплообменника	Соединительные трубки	Мотор-компрессор	М/вентилятора фена	М/вентилятора блока	Температура воздуха при входе в испаритель	Температура воздуха при выходе из испарителя	Напряжение в сети	Потребляемый ток	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15

Представитель подрядной организации _____

Представитель ООО «UMS» _____

ПРОТОКОЛ №

Измерения сопротивления изоляции силовых проводок.

“ ____ ” _____ 2025 года.

Заказчик: ООО "UMS"

Объект: 1) Измерения проводились мегомметром типа

2) Результаты измерений:

РЕЗУЛЬТАТЫ ИЗМЕРЕНИЙ


№	Наименование и № фидера или цепи.	Раб. напр. кВ	Сопротивление изоляции МОм						Заключение
			A-B	A-C	B-C	A-O	B-O	C-O	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1									
2									
3									
4									
5									
6									
8									
9									


Общее заключение: Сопротивление изоляции силовых проводок и кабелей в норме

Электромеханик ЭТЛ _____

Начальник ЭТЛ _____


План 3-го этажа на отл + 6.600





Масштаб 1:100

						"Коммутационная станция" в г. Джизак		
Изм.	Кол.уч.	Лист	№ док.	Подп.	Дата	г. Джизак, 3 этаж Аппаратная 000 "UMS"		
Разработал								
Проверил						План помещения		
						Стадия	Лист	Листов
						РП	1	2
						000 "Universal Mobile Systems"		



Ilova № 5 Texnik topshiriqga "Texnik talablarga muvofiqlik jadvali"

Talab №	Talab/Texnik xususiyatlar	Talabning turi	Talab qilinadigan hujjatlar	Bloklovchi/ Bloklamaydi gan	Ishtirokchi 1 - Yechim nomi nomini (ishlab chiqaruvchi) ko'rsating			Yechim
					Muvofiqlik/ Nomuvofiqlik	Tavsifga havola (hujat	Izohlar	
Texnik xususiyatlar: Uskunaga qo'yiladigan asosiy talablar.								
TX-1	Konditsioner turi	VRV/VRF (kanalli, devoriy)	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi				
TX-2	Kompressor turi	Ch'lg'am (Spiralli)	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi				
TX-3	Xizmat muddati	Kamida 5 yil (60 oy)	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi				
TX-4	Vakolatli texnik xizmat ko'rsatish (servis) markazlarning mavjdligi	O'zbekiston. Toshkent	Kafolat hati	Bloklovchi				
TX-5	Ishlash holati (rejimi)	Issiq-Sovuq (Teplo-Xolod) Kun-u tun	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi				
TX-6	Sovutish agenti (xladagent) turi	O'zbekiston Respublikasida foydalanishga ruxsat etilgan, Ekologik toza	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi				
TX-7	"Sovutish" holati (rejimi)da xona ichidagi ishchi harorat diapazoni, °S	+18 dan + 30 gacha	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi				
TX-8	Atrof-muhit haroratida «sovutish» holati (rejimi)da ish qobiliyatini saqlash, °S	.+50 gacha	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi				
TX-9	Atrof-muhit haroratida «isitish» holati (rejimi)da ish qobiliyatini saqlash, °S	.-20 gacha	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi				
TX-10	Shovqin darajasi, dB dan oshmasligi kerak	55	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi				
TX-11	LED-displey (o'rnatilgan harorat, ishlash holati (rejimi), yoqish/o'chirish)	Bor (Mavjud)	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi				
TX-12	Tashqi va ichki qurilmalar (bloklar) orasidagi eng yuqori masofa, kamida (m)	30	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi				
TX-13	Tashqi va ichki qurilmalar (bloklar) orasidagi eng yuqori balandlik farqi, kamida (m)	50	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi				

TX-14	Trassaning eng yuqori umumiy uzunligi (m)	250	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-15	Havo chiqarish (puflash)	Vertikal	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
	Kommutator						
TX-16	Tashqi qurilmaning sovutish unumdorligi (kVt) kamida	55	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-17	Tashqi qurilmaning sovutish unumdorligi (kVt) kamida	55	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-18	Elektr ta'minoti (faza, kuchlanish, chastota)	(V) 3~380–400 V, 50 Gs	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-19	Ichki qurilmaning sovutish unumdorligi (kVt) kamida	26	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-20	Ichki qurilmaning sovutish unumdorligi (kVt) kamida	26	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-21	Ichki qurilmaning sovutish unumdorligi (kVt) kamida	26	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-22	Ichki qurilmaning sovutish unumdorligi (kVt) kamida	26	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-23	Havo sarfi, m³/soat kamida	4500	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-24	Havo bosimi	Yuqori bosimli	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-25	Havo kanallarini tayyorlash	Ha	Kafolat hati	Bloklovchi			
	3-Qavat Talablari (Misol)						
TX-26	3-qavat uchun Tashqi blokning sovutish unumdorligi (kVt) kamida	40	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-27	3-qavat uchun Elektr ta'minoti (faza, kuchlanish, chastota)	(V) 3~380–400 V, 50 Gs	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-28	3-qavat uchun Ichki qurilmaning sovutish unumdorligi (kVt) kamida	3,2	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-29	3-qavat uchun Ichki qurilmaning sovutish unumdorligi (kVt) kamida	3,2	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-30	3-qavat uchun Ichki qurilmaning sovutish unumdorligi (kVt) kamida	3,2	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			

TX-31	3-qavat uchun Ichki qurilmaning sovutish unumdorligi (kVt) kamida	5	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-32	3-qavat uchun Ichki qurilmaning sovutish unumdorligi (kVt) kamida	7	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-33	3-qavat uchun Ichki qurilmaning sovutish unumdorligi (kVt) kamida	9	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
TX-34	3-qavat uchun Ichki qurilmaning sovutish unumdorligi (kVt) kamida	9	Pasport (manual, texnik hujjatlar)	Bloklovchi			
		Bloklovchi mezonlar uchun umumiy ball		30			

Ilova № 5.1. Texnik topshiriqga "Texnik talablarga muvofiqlik jadvali"

Talab №	Talab/Texnik xususiyatlar	Talabning turi	Bloklovchi/ Bloklamaydigan	Ballar	Ishtirokchi 1 - Yechim nomi nomini (ishlab chiqaruvchi) ko'rsating			Yechim
					Muvofiqlik/ Nomuvofiqlik	Tavsifga havola (hujat	Izohlar	
Mahsulot Haqida Qo'shimcha Ma'lumotlar								
TQT-1	Ishlab chiqaruvchi.		Bloklamaydigan	2,5				
TQT-2	Markasi.		Bloklamaydigan	2,5				
TQT-3	Modeli.		Bloklamaydigan	2,5				
TQT-4	Ishlab chiqaruvchi davlat.		Bloklamaydigan	2,5				
		Bloklamaydigan mezonlar uchun umumiy ball		10				